

**Lift uskunalarini yetkazib
berish va o'rnatish
Shartnomasi №**

2022 й. «30» 6

2022-1271-12-175-
TB-coh

Xonqa.t

Bundan buyon matnda “Etkazib beruvchi” deb ataluvchi Mahsulot yetkazib beruvchi “IDEAL LIFT SERVIS” MChJ nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbar Qudratov Xayrullo Fayzievich bir tomondan hamda bundan buyon matnda “Buyurtmachi” deb ataluvchi Xonka tuman Tibbiyot birlashmasi nomidan Buyurtmachi korxona rahbarining K.R.Tangriberdiev ikkinchi tomondan quyidagilar to‘g‘risida shartnoma tuzdilar:

1. ShARTNOMA PREDMETI

“Etkazib beruvchi” quyidagi Uskunalarni yetkazib berish majburiyatini oladi:

- lift uskunalarini (keyingi o'rnlarda Uskunalar)

Uskunalarning to‘liq ro‘yxati, miqdori, konfiguratsiyasi, texnik tavsiflari Taraflar tomonidan ushbu shartnomaning 1-ilovasi bo‘lgan va uning ajralmas qismini tashkil etuvchi Uskunaning me’oriy texnik hujjati (spesifikatsiyasi)da kelishilgan (Shartnomaning 1-ilovasi - Uskuna me’oriy-texnik hujjati (spesifikatsiyasi))

“Etkazib beruvchi” ushbu shartnoma bo‘yicha quyidagi ish turlarini (keyingi o'rnlarda “Ishlar” deb yuritiladi) bajarish majburiyatini oladi:

- lift uskunasining qurilish-montaj ishlari;
- lift uskunasini o'rnatish va ishga tushirish;

**2. ShARTNOMA SUMMASI VA TOMONLAR O'RTASIDA HISOB-KITOBLARNI
AMALGA OSHIRISH TARTIBI.**

Shartnomaning umumiy summasi QQS bilan 290 000 000 so‘mmi tashkil etadi.

Shartnomaning 2.1 bandida ko‘rsatilgan umumiy summa yakuniy hisoblanadi va qayta ko‘rib chiqilmaydi, agar ushbu shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, xususan:

lift uskunalarini narxini belgilovchi ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi, ularning qiymati, xarajatlari va shunga o‘xhash boshqa ko‘rsatkichlar, shuningdek, bojxona to‘lovlari, soliqlar va yig‘imlar stavkalari o‘zgarganda, milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan narxi o‘zgaradi. 2.3. Agar ushbu shartnomada ko‘zda tutilmagan qo‘srimcha ishlarni bajarish zarur bo‘lsa, “Etkazib beruvchi” ularning narxini ushbu shartnoma qiymatidan alohida hisoblab chiqadi. Bunday holda “Etkazib beruvchi” “Buyurtmachi” bilan yangi shartlarni kelishib, ushbu shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarish muddatini o‘zgartirishga haqli. Alohida miqdorda qo‘srimcha ishlarni bajarish, shuningdek ushbu shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarish muddatlarini o‘zgartirish ushbu shartnomaga qo‘srimcha bitim imzolash bilan rasmiylashtiriladi.

2.4. Tomonlar o‘rtasida hisob-kitob pul o‘tkazish va naqd pul to‘lash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

3. TO‘LOV ShARTLARI

“Buyurtmachi” shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni bosqichma-bosqich amalga oshiradi:

“Buyurtmachi” ushbu shartnomani imzolaganidan keyin 10 (o‘n) kun ichida shartnomaning 2.1. bandiga muvofiq Uskuna uchun 30% foizi miqdorda “Etkazib beruvchining” hisob raqamiga 87 000 000 so‘m avans to‘lovini amalga oshiradi.

Uskuna “Buyurtmachining” ob‘ektiga yetkazib berilganidan va o‘rnatilganidan so‘ng, “Buyurtmachi” 5 (besh) kun ichida shartnomaning 2.1. bandida ko‘rsatilgan Uskunaning

qiymatini yana 70% foizi miqdorda “Etkazib beruvchining” hisob raqamiga 203 266 000 so‘m to‘lovni amalga oshiradi.

Tegishli to‘lovni amalga oshirish sanasi “Etkazib beruvchi”ning hisob raqamiga mablag‘ kelib tushgan sana hisoblanadi.

“Buyurtmachi” ushbu shartnomada belgilangan tartib va to‘lov muddatini buzgan taqdirda, “Etkazib beruvchi” Uskunani yetkazib berish muddatini kechiktirishga haqli bo‘lib, “Etkazib beruvchi” ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish muddatini buzmaydi.

“Buyurtmachi” “Etkazib beruvchi”ning bajargan ishlari va ko‘rsatilgan xizmatlari to‘liq to‘lamaguncha “Etkazib beruvchi” keyingi bosqich ishlariga o‘tmaslik huquqiga ega.

4. USKUNA YETKAZIB BERISH MUDDATLARI VA ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA SIFATI.

Yetkazib berilgan Uskunalar yangi bo‘lishi hamda sifati belgilangan standartlarga mos kelishi shart. Ishning boshlanishi “Buyurtmachi” tomonidan to‘langan kundan boshlab 90 ish kunigacha hisoblanadi.

Uskunalar shartnomada belgilangan muddatlarda yetkazib beriladi.

Uskunalar me’yoriy-texnik hujjatlarga ega va sifati jahon standarti bo‘yicha javob beradi.

Uskunaning kafolat muddati sertifikat olingan kundan boshlab 24 oy. Ushbu kafolat – agar o‘rnatilgan Uskuna to‘g‘ri va ishlab chiqaruvchining texnik ko‘rsatmalariga hamda “Etkazib beruvchi”ning ko‘rsatmalariga muvofiq foydalanilsa, amal qiladi.

“Buyurtmachi” foydalanish, saqlash va tashish shartlari talablariga rioya qilmasa, Uskuna sifati bo‘yicha kafolat majburiyatları olib tashlanadi.

Uskunaning kafolat davrida Uskunaning nuqsonli elementlari almashtirilib beriladi va nuqsonli element “Etkazib beruvchi”ning shaxsiy mulki hisoblanadi.

5. YETKAZIB BERUVChINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

Ushbu shartnomadagi shartlar asosida “Etkazib beruvchi” o‘z vaqtida Uskunani o‘rnatadi hamda Uskunaga tegishli bo‘lgan hujjatlarni “Buyurtmachi”ga topshiradi.

“Etkazib beruvchi” Uskunani topshirib, ishga tushirib berganda “Buyurtmachi” bilan 1 (bir) kun ichida tegishli tartibda topshirish-qabul qilish dalolatnomasini tuzadi. “Buyurtmachi” tomonidan topshirish-qabul qilish dalolatnomasidan bo‘yin tovlaganda, xolislar ishtirokida bu haqida dalolatnomma tuzishga haqli.

Bud bo‘limgan Uskuna uchun “Etkazib beruvchi” o‘z hisobidan budlash majburiyatini oladi.

“Buyurtmachi”ga Uskuna topshirilgandan so‘ng uni saqlash va qanday holda ishlatish kabi holatlarga javobgarlikdan mustasnodir.

5.1. BUYURTMAChINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

“Etkazib beruvchi”dan olinadigan lift uskunalarini uchun oldindan to‘lanadigan avans miqdori 30 % miqdorida avans to‘laydi.

Olingan Uskunaning qolgan pulini ushbu shartnomannig 3.1.1., 3.1.2. va 3.1.3. bandida ko‘rsatilgan muddatda to‘lab berishni kafolatlaydi.

Usunani o‘z vaqtida qabul qilib oladi. Qabul qilib olish vaqtida hamda qabul qilib olgandan keyin mahsulotni sifati, miqdori shartnoma talablariga mos kelmasa, bu haqda “Etkazib beruvchi”ga 3 (kun) kun ichida xabar qiladi. Xabar qilish vositalariga pochta aloqa tarmog‘i, telegramma, faks hamda elektron manzil orqali yuboriladigan elektron pochta hisoblanadi.

Buyurtmachi yetkazib beruvchidan shartnomada nazarda tutilgan sifatdagi, assortimentdagi liftlarni o‘z vaqtida yetkazib berilishi va o‘rnatilishini talab qilish.

Uskuna bilan bog‘liq barcha jarayonlarda xavfsizlik texnikasi hamda yong‘in xavfsizligi qoidalari to‘la ta’minlashni o‘z zimmasiga oladi, shuningdek “Etkazib beruvchi”ga Uskunani o‘rnatib berishda barcha sharoitlarni yaratib berish majburiyatini oladi.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

«Etkazib beruvchi» majburiyati:

Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Buyurtmachi»ga belgilangan ish xizmatlarni o'z muddatida bajarish;

Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilganligi to'g'risida bildirish (xabarnoma) olgandan so'ng sifatli bo'limgan mol-mulkni 30 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 2.1-bandiga asosan sifatli bo'limgan belgilangan ish xizmatlarni bahosini qaytarib berish.

«Buyurmachi» majburiyati:

Belgilangan ish xizmatlarni qabul qilish dalolatnomasini tuzgan holda ushbu shartnomada va qonun xujjatlarda belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab muddatida belgilangan ish xizmatlarni qabul qilib olish;

Tegishli darajada sifatli bo'limgan belgilangan ish xizmatlarni kelib tushgani aniqlangandan keyin, bu xaqda dalolatnoma yozilib, 24 saat ichida «Pudratchi»ni ogohlantirish.

Belgilangan ish xizmatlarni bahosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lash.

7. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

Belgilangan ish xizmatlar bajarish vaqtida shartnoma bandlariga to'liq ryoq qilmaganligi uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va 0,4% miqdorda penya to'laydi.

«Etkazib beruvchi» belgilangan ish xizmatlarni to'liq bajarmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga bajarilmagan har kun uchun mahsulot bahosidan 0,5 % penya to'laydi.

Shartnoma talablarida ko'rsatilgan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk berilmagan bo'lsa, aybdor taraf 20 % miqdorida jarima to'laydi.

Belgilangan ish xizmatlarni uchun «Buyurtmachi» o'z vaqtida yoki to'liq to'lovni amalga oshirmagan bo'lsa, mablag' miqdoridan 0,4 % penya to'laydi, lekin 50 % miqdordan oshib ketmasligi kerak.

Jarima to'lash taraflarni shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

«Etkazib beruvchi» belgilangan ish xizmatlarni to'liq bajarmaganligi uchun 20 % miqdorda jarima to'laydi. Shartnomada belgilanmagan holatlar O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yilgi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va Fuqarolik kodeksi talablarasi asosida ko'rib chiqiladi.

Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar taraflarning kelishuviga asosan, agarda taraflar o'rtasida kelishuvga erishilmasa nizolar iqtisodiy sud tomonidan hal kilingadi.

8. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga ryoq etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalalar buzilganda yoki asosli gumanlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holatni

pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

9. FORS-MAJOR HOLATLARI

Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmanan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bo'yicha javobgar emas. Urush e'lon kilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiyasi, embargo, yer qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.

Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzlusiz davom etsa, taraflar, bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

10. NIZONI HAL QILISH TARTIBI

Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.

Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarda belgilangan tartibda iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf yetilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

11. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI

Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga yega bo'ladi.

11.2. Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

12. BOSHQA HOLATLAR

Ushbu shartnomaga ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 2 nusxada tuzilgan, hamda ushbu shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil fevraldagi PK-594-sonli qaroriga asosan G'aznachilikda ro'yxatga olingandan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi.

Ushbu shartnomada to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan barcha shartlar amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Ushbu shartnomaga kitirilgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan va tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

Ushbu shartnomaga tomonlarning imzolari va muhrlari bilan imzolangan yoki shartnomaga yozma shaklda imzolangan paytdan boshlab kuchga qiradi va tomonlar shartnomani bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

Tomonlarning hech biri ushbu Shartnomani bo'yicha huquq va majburiyatlarini boshqa tomonning yozma roziligidan uchinchi shaxsga o'tkazishga haqli emas.

Ushbu shartnomaga o'zbek tilida, ikki nusxdan tuzilgan bo'lib, har bir nusxa Tomonlar saqlash uchun. Shartnomani bir xil kuchga ega.

Ushbu shartnomaga ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lib ikki nusxada tuzilgan. Ushbu shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil fevraldagi PK-594-sonli qaroriga asosan G'aznachilikda ro'yxatga olingandan keyin qonuniy kuchga kiradi,

Taraflarning boshqa talablari:

13. TARAFLARNING YURIDIK MANZILGOHI VA TO'LOV REKVIZITLARI:

Etkazib beruvchi: Buyurtmachi:

"IDEAL LIFT SERVIS" MChJ

Buxoro.sh, Xavzi bodom ko'chasi 85 uy

Xonka tuman Tibbiyot birlashmasi

Xonka.t Al-Xorazmiy 70 uy

Tel: (+99891) 441-04-10
h/r: 20208000200983756001
“O‘zsanoatqurilishbank”
MFO:00440
INN: 305973645
OKED: 43299



Rahbar:

K.X.Kudratov

Tel: 8-362-39-91-554
ShHR: 401722860332237072110054001
Markaziy bank Toshkent.sh HKKM
MFO:00014
INN: 200429599
OKED: 86100



Rahbar:

K.R.Tangriberdiev

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 109538 на приобретение Услуга по ремонту пассажирского лифта

Способ проведения электронный

Дата 27.06.2022

Время рассмотрения 27.06.2022 16:25

Конкурсная комиссия Хонка туман Тиббиёт бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	JUMANIYOZOV G'ULAMBOY XO'JAYAZOVICH	Иктисадий масалалар буйича уринбосар	Хонка туман тиббиёт бирлашмаси
Секретарь комиссии	XAMRAYEVA ZAMIRA KUZIYEVNA	Хонка туман тиббиёт бирлашмаси бош хамшираси	Хонка туман тиббиёт бирлашмаси
Член комиссии	RADIPOV KOMILJON XXX	Хонка ТТБ касаба уюшма кумитаси раиси	тандов комиссияси
Член комиссии	SABIROVA ZULFIYA BAXADIROVNA	Давлат харидлари хисобчиси	Хонка туман тиббиёт бирлашмаси
Член комиссии	SULTANOV QUDRAT O'RINBAYEVICH	Хонка туман тиббиёт бирлашмаси бошлиги уринбосари	Хонка туман тиббиёт бирлашмаси
Член комиссии	JUMANIYOZOV RAVSHAN O'RINOVICH	Хужалик булим мудири	Хонка туман тиббиёт бирлашмаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 27.06.2022 года № лота 109538.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 100.00 / Весовой коэф. ценовой части: .00)

Мин. балл: 85

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по ремонту пассажирского лифта
Подробное описание	Услуга по ремонту пассажирского лифта
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	290 379 000.00
Стартовая сумма	290 379 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ишчилари тугрисида маълумот

Тип: Бинарное значение

Описание: Ишчилари тугрисида маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО IDEAL LIFT SERVIS PLYUS	30	1	23	Экспертная		
ООО YUMA GREEN	30	1	29	Экспертная		

Критерий №2 Солик органларидан карздорлиги буйича маълумот

Тип: Бинарное значение

Описание: Солик органларидан карздорлиги буйича маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО IDEAL LIFT SERVIS PLYUS	10	1	10	Экспертная		
ООО YUMA GREEN	10	1	10	Экспертная		

Критерий №3 Сифатли лифт урнатиш

Тип: Бинарное значение

Описание: Сифатли лифт урнатиш

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО IDEAL LIFT SERVIS PLYUS	30	1	30	Экспертная		
ООО YUMA GREEN	30	1	18	Экспертная		

Критерий №4 Жорий таъмирлаш 90 кунда якунлаш

Тип: Бинарное значение

Описание: Жорий таъмирлаш 90 кунда якунлаш

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО IDEAL LIFT SERVIS PLYUS	30	1	30	Экспертная		
ООО YUMA GREEN	30	1	30	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО YUMA GREEN	290 379 000.00	290 379 000.00	27.06.2022 10:40:27	.00
ООО IDEAL LIFT SERVIS PLYUS	290 379 000.00	290 000 000.00	27.06.2022 09:52:29	.00

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО YUMA GREEN	87	0	87
ООО IDEAL LIFT SERVIS PLYUS	93	0	93

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 109538 от 27.06.2022 года на приобретение Услуга по ремонту пассажирского лифта определила победителем:

ООО IDEAL LIFT SERVIS PLYUS
305973645

и резервный исполнитель: **ООО YUMA GREEN (304507495)**

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	SABIROVA ZULFIYA BAXADIROVNA	Согласен	
Член комиссии	JUMANIYOZOV RAVSHAN O'RINOVICH	Согласен	
Член комиссии	SULTANOV QUDRAT O'RINBAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	RADJAPOV KOMILJON XXX	Согласен	
Председатель комиссии	JUMANIYOZOV G'ULAMBOY XO'JAYAZOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

**YURIDIK AXAMIYATGA EGA XUJJATLARNING QONUN XUJJATLARIGA
MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA
HUQUQIY XULOSA.**

Nº JI06122524

1. Loyihaning turi: Shartnoma.
2. Loyixanining nomi: Lift uskunalarini yetkazish va o‘rnatib berish to‘g‘risida.
3. Loyiha ishlab chiqaruvchi va kiritilgan sana xaqidagi ma’lumot:

Xorazm viloyati Xonqa tumani tibbiyot birlashmasi tomonidan tuzilgan va 30.06.2022 yilda dasturga kiritilgan.

“Etkazib beruvchi” deb ataluvchi Mahsulot yetkazib beruvchi “IDEAL LIFT SERVIS” MChj va “Buyurtmachi” deb ataluvchi Xonqa tuman Tibbiyot birlashmasi o‘rtasida lift uskunalarini yetkazib o‘rnatib berish to‘g‘risida shartnoma loyixasi tuzilgan. Shartnomaning umumiyligi summasi QQS bilan 290 379 000 (ikki yuz to‘qson million uch yuz yetmish to‘qqiz ming) so‘mni tashkil etadi.

Loyiha amaldagi qonun xujjalari muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadiga muvofiq.

Xonqa tuman yuridik xizmat
ko‘rsatish markazi bosh yuristkonsulti

2022-yil«30» iyun.



D.Raximov

Хонка туман Тиббийт Бирлашмасига қарашли кўп тармоқли марказий поликлиникаси лифтини жорий таъмирлаш ойлар давомида
молиялаштириш графиги

Молиялаштириш шарти	Молиялаштириш ойлари												сўмда
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
Олдиндан тулов 30%					87 113 000								
Бажарилган ишларга асосан 70%													
						203 266 000							

"IDEAL LIFT SERVIS" МСНН

Рахбари:

К.Х.Кудратов



Хонка туман Тиббийт Бирлашмаси

К.Р.Тангрисбердиев



шартномага 2-илова

Хонка туман Тиббийт Бирлашмасига карашли кўп тармоқни марказий поликлиникаси лифтини жорий таъмирлаш ойлар давомида бажариладиган ишлар графиги

Бажариладиган ишлар	Бажариладиган ойлари												сўмда
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
Жорий таъмирлаш					87 113 000				203 266 000				



"IDEAL LIFT SERVIS" MCHJ

Рахбари: 
К.Х. Кудратов

Хонка туман Тиббийт Бирлашмаси

К.Р.Тангрибердиев

